



Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

MAKTABLARDA O'QUVCHILARNING BILIM Olishiga SALBIY TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Bulling yoki bezorilik

Mundarija

Kirish 4

Adabiyotlar sharhi 5

Ma'lumotlar va metodologiya 6

Ma'lumotlar 6

Metodologiya 6

Ta'lim olishga to'sqinlik qiluvchi omillar 7

Maktab muhitidagi muammolar 7

Maktabda o'zini xavfsiz his qilish 7

Bulling yoki zo'ravonlik 8

Tadqiqot natijalari 9

Xulosa 10

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 12



Kirish


Bugungi kunda O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi doimiy rivojlanish va takomillashish jarayonida. Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va har bir fuqaroning bilim olish huquqini ta'minlash maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, nodavlat ta'lim muassasalarini qo'llab quvvatlash, o'qituvchilarning kasb mahoratini yuksaltirish va boshqalardan iborat.

Biroq, islohotlarni samarali amalga oshirishga bolalarga nisbatan zo'ravonlik kabi nomaqbul illatlar to'sqinlik qilmoqda. Ushbu illatlarning oldini olish maqsadida joriy yilning 14-noyabrida O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonuni imzolandi. Qonunning 3-moddasida quyidagilar e'tirof etilgan:

“Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'ravonlikning shaklidir. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta'qib qilinadi.”

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish yanada adolatli va sifatli ta'lim tizimiga erishish uchun juda muhim. Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) ta'lim natijalarini har tomonlama ko'rib chiqishni ta'minlaydi va mavjud omillarni obyektiv baholash imkonini beradi.

PISA 2022 so'rovnomasi natijalaridan foydalanilgan mazkur tadqiqot O'zbekistonda o'quvchilarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan asosiy omillar, xususan, maktablardagi muhit - bulling, xavfsizlik va tartib-intizomni tahlil qilishga qaratilgan.



Adabiyotlar sharhi

Bulling - bu boshqa shaxsga nisbatan qayta-qayta va ataylab tajovuz qilish, kimningdir boshqa odamni qasddan va muntazam ravishda ruhiy yoki jismoniy jihatdan azoblashi hamda noqulaylik keltirishi sifatida ta'riflanadi. (Şirin, 2022). Bulling jismoniy zo'ravonlik (urish, musht tushirish yoki tepish) va tovlamachilikni (jabrlanuvchini o'z mol-mulkini berishga majbur qilish) o'z ichiga oladi. Shuningdek, u faqat so'z (haqorat va masxara qilish) yoki munosabatlarga asoslangan (mish-mishlar tarqatish, jamoat oldida tahqirlash va sharmanda qilishning boshqa shakllari, ijtimoiy chetlatishga undash) bo'lishi ham mumkin (UNESCO, 2019; Woods va Wolke, 2004).

O'quvchilarning bulling va zo'ravonlik kabi jismoniy yoki ruhiy tazyiqqa duch kelishi ularda og'ir, uzoq muddatli jismoniy va ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin (Sobba, 2018; Turanovic va Siennick, 2022; Vanderbilt va Augustyn, 2010; Wolke va Lereya, 2015; Woods va Wolke, 2004). Bularga jismoniy va ruhiy salomatlikning yomonlashuvi (shu jumladan o'z joniga qasd qilish xavfining oshishi) hamda o'qishdagi ko'rsatkichlarning pastligi kiradi. Tez-tez qo'rqitish va kamsitishlarga duchor bo'ladigan o'quvchilarning o'z hayotidan qoniqmaslik ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Maktabda qo'rqitish va kamsitishlarning keng tarqalishi esa o'quvchilarda maktabga tegishlilik hissining zaiflashuviga olib keladi. Yillar davomida zo'ravonlikka uchragan o'quvchilar, ayniqsa

uzoq vaqt jabrlanuvchi bo'lganlar, katta yoshdagi rollariga moslashishda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladi. Ular uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish, ish kirishish va iqtisodiy mustaqillikka erishishda muammolarga uchraydi. Bunday o'quvchilar maktabdan qochishga moyil bo'ladi.

O'quvchilar orasidagi zo'ravonlik qurbonlari ko'pincha stress, xavotir va tushkunlikka tushib qoladi. Bu esa ularning ta'lim olish qobiliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (Yosep va boshqalar, 2023). Maktabdagi zo'ravonlik o'quvchilarning matematika va o'qish bo'yicha yutuqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar bu ta'sirni yumshatishi mumkin, ayniqsa o'g'il bolalar uchun bu muhim (Konishi va boshqalar, 2010). Bundan tashqari, bulling nafaqat qurbonlar, balki zo'ravonlik qiluvchilar va guvohlarga ham ta'sir ko'rsatadigan turli shakllarni o'z ichiga oladi. Bu shakllarga og'zaki va jismoniy hujumlar, masxara qilish hamda haqoratli xatti-harakatlar kiradi (Jan va Husain, 2015). Bulling natijasida yuzaga keladigan ruhiy zo'riqish o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari pasayishi bilan bog'liq (Bravo-Cedeño va Ávila-Rosales, 2022). Bu esa o'qituvchilar va ota-onalardan bunday vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishi talab etadi. Bundan tashqari, maktablardagi ijtimoiy munosabatlar ham salbiy ta'sir qiladi. Chunki zo'ravonlik qurbonlarning ijtimoiy izolyatsiyasi va tengdoshlar orasida qo'rquv muhitining shakllanishiga olib keladigan dushmanona vaziyatni yuzaga keltiradi (Nufus va Lestari, 2023). Bullingni aniqlash va tushunish juda muhim. Chunki uning ta'lim jarayoniga ta'sirini

past baholash mumkin emas. O'quvchilar uchun yaxshiroq o'quv muhitini yaratish maqsadida bullingni kamaytirish choralarini ko'rish lozim. (Jan va Husain, 2015). Umuman olganda, mavjud dalillar bulling odatda o'quv muhitida salbiy natijalarga olib kelishini ko'rsatadi. Bularning barchasi o'quvchilarning o'quv ko'rsatkichlarini pasaytirib, o'z navbatida, malakasi past ishchi kuchining shakllanishiga olib keladi va natijada iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi (OECD, 2010; Davlasheridze va boshqalar, 2018).

Ma'lumotlar va metodologiya

Ma'lumotlar

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) (Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)) tomonidan o'tkazilgan PISA 2022 butun dunyo bo'ylab 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini baholadi. PISA ma'lumotlar to'plami qat'iy tanlov va o'rnatilgan baholash usullarini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ta'lim muhiti haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim eta oladi. 2022-yilgi ma'lumotlar to'plami O'zbekistonning turli hududlari bo'yicha o'quvchilarning javoblarini o'z ichiga olgan. So'rov asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasi 202 ta maktab va 7293 nafar o'quvchini o'z ichiga oladi.

O'tkazilgan tahlil va tadqiqot maktabdagi muhit o'quvchilarning o'quv natijalariga ta'sirini baholaydi. Bunda o'quvchilarning ta'lim olishi jarayonidagi to'siqlar, shu jumladan

maktabdagi muhit bilan bog'liq omillar ko'rib chiqilgan.

Metodologiya

Maktabdagi muhit va bulling o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishini miqdoriy baholash uchun ko'p omilli regression tahlildan foydalanildi. Bog'liq o'zgaruvchi o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha PISA 2022 ballari bo'ladi. Maktabdagi xavfsizlik indeksi, bulling indeksi va bullingga aloqador boshqa savollar bo'yicha ishlab chiqilgan o'zgaruvchilar mustaqil o'zgaruvchilardir. Nazorat o'zgaruvchisi sifatida o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi indeksidan foydalanilgan bo'lib, ushbu o'zgaruvchi tadqiqotning ishonchliligini oshirish uchun xizmat qiladi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri mustaqil o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lmagan o'zgarishlarni inobatga oladi.

Maktabdagi xavfsizlik indeksi o'quvchilardan olingan PISA 2022 so'rovining ST266 savolini bitta indeksga jamlab, IHTT mamlakatlari standart chetlanishining o'rtacha 0 qiymat atrofida yoyilishi asosida yasalgan. Indeksning musbat qiymati o'quvchi maktabda IHTT mamlakatlaridagi o'rtacha o'quvchidan ko'ra ko'proq xavf his qilishini ifodalaydi.

Bullingga uchrash haqidagi savol (ST038), "So'nggi 12 oy mobaynida maktabda quyidagilarni qay darajada boshingizdan o'tkazdingiz?". Yangi o'zgaruvchilar javoblar ("Hech qachon yoki deyarli hech qachon", "Yiliga bir necha marta", "Oyiga bir necha marta", "Haftasiga bir marta yoki undan ko'proq") ga asoslangan holda shakllantirilgan. Bunda savolda keltirilgan bir

qancha bulling holatlari oyiga kamida bir necha marotaba uchraydigan o'zgaruvchilarga aylantirib olingan:

- ◆ boshqa o'quvchilar meni boshqa narsalarga atayin qo'shmasdi;
- ◆ o'quvchilar meni masxara qilardi;
- ◆ boshqa o'quvchilar meni qo'rqitardi;
- ◆ boshqa o'quvchilar menga tegishli narsalarni olib qo'yar yoki sindirardi;
- ◆ boshqa o'quvchilar meni doim urar yoki turtardi;
- ◆ boshqa o'quvchilar men haqimda yomon gaplarni tarqatardi;
- ◆ men maktab hududida boshqa o'quvchilar bilan urishardim;
- ◆ men o'zimni xavf ostida sezganim uchun maktabdan qolardim;
- ◆ boshqa o'quvchilar meni qo'rqitgani uchun ularga pul berib turardim;

Yuqorida keltirilgan bullingga uchrash ko'rsatkichlarining har birini inobatga oladigan ikkita ko'rsatkich shakllantirilgan:

- ◆ "Har qanday turdagi bulling" - Istalgan bir turdagi bullingga oyiga kamida bir necha marotaba uchrash holatlarini o'z ichiga olgan mustaqil o'zgaruvchi.
- ◆ "Bullingga uchrash indeksi" – PISA 2022 so'rovining yuqoridagi bulling haqidagi savollarini bitta indeksga jamlab, IHTT mamlakatlari standart chetlanishining o'rtacha 0 qiymat atrofida yoyilishi asosida yasalgan. Indeksning musbat qiymati o'quvchi maktabda IHTT mamlakatlaridagi o'quvchiga qaraganda bullingga ko'proq duchor bo'lishini ifodalaydi.

Tadqiqotning ekonometrik tahlili "Repest" modelida amalga oshirildi. Repest modeli turli

vaznlarga ega bo'lgan so'rovnoma natijalarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan.

Ta'lim olishga to'sqinlik qiluvchi omillar

Maktab muhitidagi muammolar, maktabda o'zini xavfsiz his qilish, bulling yoki zo'ravonlik ta'lim olishga to'sqinlik qiluvchi omillardir.

Maktab muhitidagi muammolar


Maktab boshqaruv xodimlari orasida o'tkazilgan PISA 2022 so'rovi natijalariga ko'ra, sababsiz dars qoldirish (26%), spirtli ichimliklar yoki taqiqlangan dori vositalarini iste'mol qilish (26%) hamda o'qituvchilarning darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmasligi (25%) maktabda o'quvchilarning ta'lim olishiga jiddiy salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, maktab muhitiga aloqador boshqa omillar, masalan, o'quvchilarning boshqa o'quvchilarni qo'rqitishi yoki zo'ravonlik qilishi (20%) hamda o'qituvchilarning o'quvchilarga nisbatan juda qattiqqo'l bo'lishi (8%), ham ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligi aniqlangan. Maktabdagi muammolardan yana urushqoqlik (31%), bir o'quvchining ikkinchi o'quvchiga tan jarohati yetkazishi (21%) va haqoratli so'zlar ishlatishi (21%) va bezorilikka aloqador illatlar ham borligi aniqlangan.

Maktabda o'zini xavfsiz his qilish


O'quvchilar ko'proq o'zlarini maktab hududida (masalan yo'lak, oshxona, hojatxona) (O'zbekiston - 20%, IHTT o'rtachasi - 10,1%, PISA o'rtachasi - 12,5%, Qozog'iston - 14,2%), maktabdan uyga qaytish yo'lida

Har yetti o'quvchidan kamida bittasi maktabda o'zini xavfsiz his qilmaydi va zo'rvonlik yoki bezorilik guvohi bo'ladi.

O'quvchilarning o'zini xavfsiz his qilishi¹ (%)




O'quvchilarning zo'rvonlik va bezorilikka guvoh bo'lishi² (%)



¹ Protsentlar PISA 2022 O'quvchi so'rovnomasining quyidagi savoliga (ST265) asosanib hisoblangan: Quyidagi fikrlarga qay darajada qo'shilasiz yoki qo'shilmaysiz?

² Protsentlar PISA 2022 O'quvchi so'rovnomasining quyidagi savoliga (ST266) asosanib hisoblangan: So'nggi o'tgan to'rt hafta mobaynida quyidagi holatlar ro'y berdimi?

1 - rasm. O'quvchilarning turli xususiyatlar kesimida bullingga duch kelishining ulushi.



Manba: PISA 2022 so'rovnomasining natijalari asosida muallif tahlili.

(O'zbekiston - 15%, *IHTT o'rtachasi* - 8,5%, *PISA o'rtachasi* - 10,2%, *Qozog'iston* - 13,5%), maktabga borish yo'lida (O'zbekiston - 14%, *IHTT o'rtachasi* - 8,2%, *PISA o'rtachasi* - 10,1%, *Qozog'iston* - 15,6%) va maktab sinf xonasida (O'zbekiston - 14%, *IHTT o'rtachasi* - 6,9%, *PISA o'rtachasi* - 8,1%, *Qozog'iston* - 12,3%) xavfsiz his etmasligini aytib o'tgan.

Bulling yoki zo'ravonlik

So'rovnoma o'quvchilar o'rtasida qo'rqitishlar (19%, *IHTT o'rtachasi* - 20,2%, *PISA o'rtachasi* - 21,7%, *Qozog'iston* - 8%), maktab hududidagi to'polonda jarohatlanishlar (16%, *IHTT o'rtachasi* - 17%, *PISA o'rtachasi* - 17,8%, *Qozog'iston* - 7,6%), maktab buyumlariga zarar yetkazish (14%, *IHTT o'rtachasi* - 19,8%, *PISA o'rtachasi* - 15,9%, *Qozog'iston* - 2,7%), maktabda bezorilar to'dasining mavjudligi (9%, *IHTT o'rtachasi* - 12,1%, *PISA o'rtachasi* - 13,3%, *Qozog'iston* - 2,4%), o'quvchining sovuq qurol bilan qurollanganligi (6%, *IHTT o'rtachasi* - 10,6%, *PISA o'rtachasi* - 10,2%, *Qozog'iston* - 3,5%) kabi zo'ravonlik va bezorilik holatlari kuzatilganini ko'rsatgan. O'quvchilar, shuningdek, o'quvchilarning yomon gaplarni tarqatishi (21%, *IHTT o'rtachasi* - 23,5%, *PISA o'rtachasi* - 24,2%, *Qozog'iston* - 14,4%), boshqa o'quvchilar bilan maktab hududida urishishi (17%, *IHTT o'rtachasi* - 9,3%, *PISA o'rtachasi* - 10,9%, *Qozog'iston* -

O'quvchilarning to'g'ridan-to'g'ri bullingga duch kelishi

O'quvchilarning tog'ridan-to'g'ri bullingga duch kelishi* (n ≈ 6800, %)

	Haftasiga bir marta yoki undan ko'proq	Oyiga bir necha marta	Yiliga bir necha marta
Boshqa o'quvchilar meni atayin yakkalardi.	4	3	10
Boshqa o'quvchilar men haqimda yomon gaplarni tarqatardi.	3	5	14
O'quvchilar meni masxara qilardi.	3	4	10
O'zimni xavf ostida sezganim uchun maktabga bormas edim.	2	1	5
Maktab hududida boshqa o'quvchilar bilan urishardim.	2	3	12
Boshqa o'quvchilar menga tegishli bo'lgan narsalarni olib qo'yar yoki sindirardi.	2	2	5
Meni boshqa o'quvchilar qo'rqitardi.	2	2	5
Boshqa o'quvchilar meni qo'rqitgani uchun ularga pul berib turardim.	1	1	2
Boshqa o'quvchilar meni doim urar yoki turtkilardi.	1	2	4

* Protsentlar PISA 2022 O'quvchi so'rovnomasining quyidagi savoliga (ST038) asoslanib hisoblangan: So'nggi 12 oy mobaynida maktabda quyidagilarni qay darajada boshingizdan o'tkazdingiz?

9,5%) va boshqa bolalar tomonidan ma'lum bir turdagi diskriminatsiyaga uchrashi (16%, *IHTT o'rtachasi - 22,5%*, *PISA o'rtachasi - 23,7%*, *Qozog'iston - 33,6%*) kabi holatlarga yilida kamida bir marotaba duch kelgan.

Tahlilda bir oyda bir necha marotaba bullingga duch keladigan o'quvchilarda:

- ◆ jinslar kesimida o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan bullingga 3,7% ko'proq uchrashi aniqlandi (o'g'il bolalar - 19,1%, qiz bolalar - 15,4%).
- ◆ muhojir oilalardan kelib chiqqan o'quvchilar esa muhojir bo'lmagan oilalardan kelib chiqqan o'quvchilarga qaraganda bullingga 13,6% ko'proq uchrashi ma'lum bo'ldi (muhojir bo'lmagan oilalardan kelib chiqqan bolalar - 17,1%, aks holda - 30,6%).
- ◆ maktabning joylashuvi bo'yicha shahardagi o'quvchi bolalar, qishloqdagi o'quvchi bolalarga nisbatan bullingga 3,8% ko'proq uchrashi aniqlandi (shahar hududida 19,4%, qishloq hududida 15,6%).

Tadqiqot natijalari

Repest modeli yordamida qilingan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maktabda xavfsizlik indeksining bir birlikka yomonlashishi o'quvchilarning bahosini matematikadan o'rtacha 5,2 ballga, o'qishdan 6,2 ballga, tabiiy fanlardan 4,7 ballga kamaytiradi .

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bullingning istalgan

bir turiga duchor bo'lish o'quvchilarning ballarini matematikadan o'rtacha 18,7 ballga, o'qishdan 18,5 ballga, tabiiy fanlardan 20,2 ballga kamaytiradi. Bundan tashqari, bullingga uchrash indeksining bir birlikka oshishi

O'zbekistonda o'quvchilarning

4,2 foizi

yiliga kamida bir marotaba **boshqa**

o'quvchilar qo'rqitgani uchun
ularga pul berib turishini aytgan

(*IHTT o'rtachasi - 2,1%*, *PISA o'rtachasi - 3,9%*, *Qozog'iston - 2,1%*).

o'quvchilarning

matematikadan ballarini

o'rtacha 5,0 ballga,

o'qishdan 5,4 ballga,

tabiiy fanlardan

bahosini 4,8 ballga

kamaytirishi aniqlandi.

Bullig turlari bo'yicha

eng katta ta'sir

tovlamachilik (ya'ni

qo'rqitish orqali pulni tortib olish) orqali bo'lishi aniqlandi. Tovlamachilikdan aziyat chekkan o'quvchining ballari matematikadan o'rtacha 57,6 ballga, o'qishdan 67,4 ballga, tabiiy fanlardan bahosi 67,0 ballga kamayishi aniqlandi. Keyingi o'rinda boshqa o'quvchilar tomonidan jismoniy bullingga uchrash (masalan, kaltaklanish, turtkilash va hokazo) turadi. Bu turdagi bulling jabrlangan o'quvchining ballarini matematikadan o'rtacha 41,3 ballga, o'qishdan 44,6 ballga, tabiiy fanlardan bahosini 49,2 ballga kamaytirishi aniqlandi. Uchinchi o'rinda o'quvchining buyumlariga zarar yetkazish turadi. Bu turdagi bulling jabrlangan o'quvchining ballarini matematikadan o'rtacha 40,0 ballga, o'qishdan 44,6 ballga, tabiiy fanlardan bahosini 45,4 ballga kamaytirishi aniqlandi.

Shuningdek, boshqa barcha turdagi bulling o'quvchilarning fanlardan olgan ballarini o'rtacha 14,3 dan 43,7 gacha kamaytirishi aniqlandi (Keyingi betga qarang).

Tovlamachilik va jismoniy bulling o'quvchilarning akademik natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bullingning o'quvchilar akademik natijasiga o'rtacha ta'siri (ball)

Bulling turlari/ indekslar	Bulling Tasnifi	Turli test natijalariga o'rtacha ta'sir		
		Matematika	O'qish	Tabiiy fanlar
Boshqa o'quvchilar meni qo'rqitgani uchun ularga pul berib turardim.*	Tovlamachilik orqali bulling	-57.6	-67.4	-67.0
Boshqa o'quvchilar meni doim urar yoki turtkildirdi.*	Jismoniy bulling	-41.3	-44.6	-49.2
Boshqa o'quvchilar menga tegishli bo'lgan narsalarni olib qo'yar yoki sindirardi.*	Tovlamachilik orqali bulling	-40.0	-44.6	-45.4
O'zimni xavf ostida sezganim uchun maktabga bormas edim.*	Har qanday turdagi bulling	-37.8	-40.4	-43.7
Meni boshqa o'quvchilar qo'rqitardi.*	Og'zaki bulling	-33.5	-37.6	-39.7
Maktab hududida boshqa o'quvchilar bilan urishardim.*	Jismoniy bulling	-30.6	-31.1	-31.8
Boshqa o'quvchilar meni atayin yakkalardi.*	Munosabatlarda bulling	-22.9	-20.2	-23.2
Boshqa o'quvchilar men haqimda yomon gaplarni tarqatardi.*	Munosabatlarda bulling	-16.2	-11.7	-14.9
Har qanday turdagi bulling ¹	-	-18.7	-18.5	-20.2
Bullingga uchrash indeksi ²	-	-5.0	-5.4	-4.8
Maktabda xavfsizlik indeksi ³	-	-5.2	-6.2	-4.7

* Ushbu o'zgaruvchilar bullingga uchrash haqidagi savol (ST038), "So'nggi 12 oy mobaynida maktabda quyidagilarni qay darajada boshingizdan o'tkazdingiz?", javoblariga ("Hech qachon yoki deyarli hech qachon", "Yiliga bir necha marta", "Oyiga bir necha marta", "Haftasiga bir marta yoki undan ko'proq") asoslangan holda, bir qancha bulling holatlarini kamida oyiga bir necha marotaba uchrash holatlari ko'rinishidagi o'zgaruvchilarga aylantirib olingan.

¹ "Har qanday turdagi bulling" - Istalgan bir turdagi bullingga kamida oyiga bir necha marotaba uchrash holatlarini o'z ichiga olgan mustaqil o'zgaruvchi.

² "Bullingga uchrash indeksi" PISA 2022 so'rovining bulling haqidagi savollarini (ST038) bitta indeksga jamlab, IHTT mamlakatlari standart chetlanishining o'rtacha 0 qiymat atrofida yoyilishi asosida yasalgan. Indeksning musbat qiymati o'quvchi maktabda IHTT mamlakatlaridagi o'rtacha o'quvchidan ko'ra bullingga duchor bo'lishini ifodalaydi.

³ "Maktabda xavfsizlik indeksi" o'quvchilardan olingan PISA 2022 so'rovining ST266 savolini bitta indeksga jamlab, IHTT mamlakatlari standart chetlanishining o'rtacha 0 qiymat atrofida yoyilishi asosida yasalgan. Indeksning musbat qiymati o'quvchi maktabda IHTT mamlakatlaridagi o'rtacha o'quvchidan ko'ra ko'proq xavf his qilishini ifodalaydi.

Xulosa

Tadqiqot O'zbekistonda maktab muhitidagi omillar, xususan bulling va xavfsizlik o'quvchilarning ta'lim olishdagi natijalariga salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi. Xavfsizlik darajasining pastligi va bulling o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy fanlardan natijalarini yomonlashtiradi. Ayniqsa, tovlamachilik va jismoniy tajovuz eng katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijalar ta'lim sifatini oshirish uchun maktablarda xavfsiz muhitni yaratish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda bullingni kamaytirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- ◆ Finlyandiyaning tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistondagi maktablarda bullingga qarshi KiVa dasturini amalga oshirish.

Ma'lumot uchun: *KiVa dasturi Finlyandiya Turku universiteti tomonidan bulingga qarshi ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan tashabbus bo'lib, Finlyandiya Ta'lim va madaniyat vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Uning samaradorligi keng ko'lamdagi tadqiqotlar va tasodifiy nazorat qilinadigan sinovlar orqali ilmiy jihatdan tasdiqlangan.*

KiVa dasturi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat:

- ◆ Oldini olish: Bullingning oldini olish uchun darslar va onlayn o'yinlarni o'z ichiga olgan o'quv dasturini joriy etish.
- ◆ Aralashuv: Bullingga oid holat aniqlanganda uni samarali hal qilish uchun maqsadli vositalar va strategiyalar bilan ta'minlash. Masalan, jabrlanuvchiga

ma'naviy ko'mak, bulling bilan shug'ullangan bolaning ota-onasi bilan suhbat kabilar.

- ◆ Nazorat qilish: Maktab muhiti va dastur ta'sirini baholash uchun o'quvchilar va xodimlar uchun yillik onlayn so'rovlar o'tkazish va uzluksiz takomillashtirishga yordam berish.

KiVa dasturi samaradorligi juda yuqori bo'lib, bu bir qancha tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Masalan, Yangi Zelandiyada KiVa dasturining qo'llanila boshlanganidan so'ng 1 yil o'tib, maktablardagi bulling darajasi 21% ga pasaygan va bu maktablardagi umumiy muhitni yaxshilagan (Mosleh va Harbi, 2023).

- ◆ Italiyaning "No Trap!" nomli bulling va kiberbullingga qarshi dasturini O'zbekiston uchun joriy etish.

Ma'lumot uchun: *NoTrap! (Noncadiamointrappola!) dasturi Italiyada o'rta va yuqori maktab o'quvchilari o'rtasida bulling va kiberbullingni oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan tashabbusdir. 2008-yilda ishlab chiqilgan ushbu dastur tengdoshlar tomonidan boshqariladigan yondashuvni qo'llab, maktabda ijobiy muhit yaratishni maqsad qilib qo'ygan.*

NoTrap! dasturining asosiy xususiyatlari:

- ◆ Tengdoshlar ta'limi: O'quvchilar tengdoshlaridan bullingga qarshi kurashish bo'yicha ta'lim olib, bulling bilan bog'liq holatda, ham hayotda, ham virtual muhitda, bullingga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo'ladi va sinfdoshlariga yordam be-

radi.

- ◆ Kompleks tayyorgarlik: Dastur o‘quvchilar, o‘qituvchilar va psixologlar uchun resurslar va tayyorgarlikni taqdim etib, bulling va kiberbullingga birgalikda qarshi kurashishni ta‘minlaydi.
- ◆ Onlayn hamjamiyat: Onlayn hamjamiyat ishtirokchilar o‘rtasida muhokamalar va bullingga qarshi kurashni osonlashtirib, dastur ta‘sirini sinf xonasidan tashqariga ham kengaytiradi.

Tadqiqotlar NoTrap! dasturi bulling va kiberbulling holatlarini samarali ravishda kamaytirishini ko‘rsatdi.

- ◆ Maktablarda muammolarni hal etish bo‘yicha qo‘shimcha ta‘lim berish. Bunda asosan bullingga ko‘p uchraydigan bolalarga ko‘mak ko‘rsatish nazarda tutiladi. Bundan tashqari ota-onalar yig‘ilishida ularga bolalarda bullingning belgilarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha maslahatlar berish lozim.

Bundan tashqari, «Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunning kuchga kirishi O‘zbekistonda bolalarni ular duch keladigan har qanday turdagi zo‘ravonlikdan himoya qilishda muhim qadam bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Ajijah Sadiyah Nufus and Lestari, M. (2023). Tindakan Bullying terhadap Gender di Lingkungan Sekolah. *BUHUTS AL-ATHFAL Jurnal Pendidikan dan Anak Usia Dini*, 3(2), pp.241–250. doi:<https://doi.org/10.24952/alathfal.v3i2.9655>.
- Avvisati, F. and François Keslair (2014). REPEST: Stata module to run estimations with weighted replicate samples and plausible values. [online] Statistical Software Components. Available at: <https://www.semanticscholar.org/paper/REPEST%3A-Stata-module-to-run-estimations-with-and-Avvisati-Keslair/9a03319fa05d8f3ce9710d89f9dd3f7401752e9f>.
- Bravo-Cedeño, J.A. and Avila-Rosales, F.M. (2022). School bullying and learning in high school students. *International research journal of management, IT and social sciences*, 9(4), pp.631–638. doi:<https://doi.org/10.21744/irjmis.v9n4.2130>.
- Davlasheridze, M., Goetz, S.J. and Han, Y. (2018). The effect of mental health on U.S. County economic growth. *Review of Regional Studies*, [online] 48(2), pp.155–171. Available at: <https://pure.psu.edu/en/publications/the-effect-of-mental-health-on-us-county-economic-growth>.
- Iyus Yosep, Mardhiyah, A., Suryani Suryani, Henny Suzana Mediani and Helmy Hazmi (2023). Experiences of bullying behavior among students in the school: A qualitative study. *Environment & social psychology*, 9(2). doi:<https://doi.org/10.54517/esp.v9i2.2082>.
- Jan, A. and Husain, S. (2015). Bullying in Elementary Schools: Its Causes and Effects on Students. undefined. [online] Available at: <https://www.semanticscholar.org/paper/Bullying-in-Elementary-Schools%3A-Its-Causes-and-on-Jan-Husain/f87f2f0cbc2e4fb7eba510d0eb9a03714f54eb99>.
- Konishi, C., Hymel, S., Zumbo, B.D. and Zhen Li (2010). Do School Bullying and Student—Teacher Relationships Matter for Academic Achievement? A Multilevel Analysis. *Canadian Journal of School Psychology*, 25(1), pp.19–39. doi:<https://doi.org/10.1177/0829573509357550>.
- Mosleh, A. and Harbi, A. (2023). Prevention policy of Bullying in NZ Schools. *WRP. Sci. J*, 6(1), p.43.
- OECD (2010), *The High Cost of Low Educational Performance: The Long-run Economic Impact of Improving PISA Outcomes*, PISA, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/9789264077485-en>.
- Palladino, B.E., Nocentini, A. and Menesini, E. (2016). Evidence-based intervention against bullying and cyberbullying: Evaluation of the NoTrap! program in two independent trials. *Aggressive Behavior*, 42(2), pp.194–206. doi:<https://doi.org/10.1002/ab.21636>.
- Şirin, H. (2022), “Bullying in Schools”, in *Advances in Social Networking and Online Communities, Handbook of Research on Bullying in Media and Beyond*, IGI Global, <https://doi.org/10.4018/978-1-6684-5426-8.ch020>.
- Sobba, K. (2018), “Correlates and buffers of school avoidance: a review of school avoidance literature and applying social capital as a potential safeguard”, *International Journal of Adolescence and Youth*, Vol. 24/3, pp. 380-394, <https://doi.org/10.1080/02673843.2018.1524772>.

Turanovic, J. and S. Siennick (2022), "The Causes and Consequences of School Violence: A Review".

UNESCO (2019), "Behind the numbers", in Behind the numbers: ending school violence and bullying, UNESCO, <https://doi.org/10.54675/TRVR4270>.

Vanderbilt, D. and M. Augustyn (2010), "The effects of bullying", Paediatrics and Child Health, Vol. 20/7, pp. 315-320, <https://doi.org/10.1016/j.paed.2010.03.008>.

Wolke, D. and S. Lereya (2015), "Long-term effects of bullying", Archives of Disease in Childhood, Publisher: BMJ Publishing Group Ltd Section: Review, pp. 879-885, <https://doi.org/10.1136/archdischild-2014-306667>.

Woods, S. and D. Wolke (2004), "Direct and relational bullying among primary school children and academic achievement", Journal of School Psychology, Vol. 42/2, pp. 135-155, <https://doi.org/10.1016/j.jsp.2003.12.002>.

Muallif: Ilkhom Ikromov, Yetakchi Mutaxassis

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Makroiqtisodiy va Hududiy
Tadqiqotlar Instituti (MHTI)

33, Xadra massivi, Toshkent, O'zbekiston,
100011

+998 (71) 244-01-17

info@imrs.uz

www.imrs.uz

Noyabr 2024

© IMRS 2024